



## GIPOTALAMUS GORMONLARINING BIOKIMYOSI, TA'SIR MEXANIZMI

**Rasulova Nilufar** – Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti talabasi.  
**Abdusaidova Charos** - Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti talabasi.

**Sultonova Sabina** – Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti talabasi  
**Salimova Dildora** – SamDTU endokrinologiya kafedrasi assistenti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada siz gipotalamus gormonlarining biokimyoviy xossalari, mexanizmlari haqida ma'lumotga ega bo'lasiz.

**Kalit so'zlar:** Gipotalamus, gipofiz, liberinlar, statinlar, tiroliberin.

Gipotalamus MNS va endokrin tizimni bevosita bir-biriga bog'laydi. Oxirgi o'n yilliklarda bu bog'liqlikni ta'minlovchi yuqori biologik faollikka ega gormonal tabiatli gumoral faktorlar ajratib olingan. Bu moddalar gipotalamusning nerv hujayralarida hosil bo'lib, portal kapillyarlar sistemasi bo'ylab gipofizga yetib boradi va gipofiz gormonlari sekretsiyasini regulyatsiya qiladi. Bu moddalar dastlab neyrogormonlar, keyin rilizing faktorlar yoki **liberinlar** deb nomlandi.

Aksincha, gipofiz gormonlari sekretsiyasini pasaytiruvchilar esa **statinlar** deb nomlandi. Shunday qilib gipotalamus gormonlari alohida a'zolar, to'qimalar va butun organizmning biologik funksiyalarini gormonal yo'l bilan boshqarishda markaziy o'rinni egallaydi. Hozirgi vaqtgacha **gipotalamusda 7 liberin** va **3 statin** topilgan, xususan: kortikoliberin, tiroliberin, lyuliberin, foil iliberin, somatoliberin, prolaktoliberin, melanoliberin hamda somatostatin. prolaktostatin va melanostatin.

Toza holatda 5 ta gormon ajratib olinib, birlamchi strukturasi kimyoviy sintez yo'lli bilan tasdiqlangan. Gipotalamus gormonlarini ajratib olishdagi qiyinchilik, ularning to'qimadagi past konsentratsiyasi bilan bog'liq. 1 mg tiroliberin olish uchun 5 mln ta qo'ydan olingan 7 t gipotalamusni qayta ishlash talab qilinadi.

Gipotalamusning hamma gormonlari ham gipofizar gormonlarning biriga mutlaq spetsifik emas. Xususan, tireoliberin nafaqat tirotropin, balki prolaktin sekretsiyasini ham oshiradi, lyul iberin esa lyuteinlovchi gormon bilan birga follikulstimullovchi gormon sekretsiyasini ham kuchaytiradi.

Gipotalamus gormonlarining sintezlanish joyi nerv uchidan gipotalamus sinaptosomalari bo'lib, aynan shu yerda gormonlar va biogen aminlarning miqdori yuqoriligi aniqlangan. Biogen aminlar ichki sekretsiya periferik bezlarining gormoni



bo‘lish bilan birga, qaytar bog’lanish yo‘li bilan gipotalamus gormonlari sintezi va sekretsiyasini boshqaruvchi asosiy omillar hisoblanadi. Tiroliberin biosintezi mexanizmi eng tez bo‘lib, noribosomal yo‘l bilan boradi. Bunda SH-tutuvchi sintetazalar yoki glutaminni piroglutaminga > aylantiruvchi, glutamin ishtirokida prolinning amidirlanishi va peptid bog’ni hosil qiluvchi fermentlar kompleksi ishtirok etadi. Bu kabi sintetazalar ishtirokida biosintez mexanizmi gonadoliberin va somatoliberin uchun ham mavjud.

Gipotalamus gormonlarining inaktivlanish yo‘llari to liq o‘rganilmagan. Kalamushlarda tiroliberinning yashash davri 4 min. Inaktivatsiya peptid bog’larining uzilishi (qon zardobidagi ekzo va endopeptidazalar ishtirokida) va prolinamid molekulasiда amid guruhning ajralishi bilan sodir bojadi. Gipotalamusda tiroliberin yoki gonadoliberindan piroglutaminning ajralishini katalizlovchi piroglutamilpeptidaza fermenti aniqlangan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Biokimyo ( darslik, R.A.Sobirova 2020)
2. Wikipedia.org.uz